



## AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INNOVATSION FAOLIYATGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

*Qosimova Zilola Arifjanovna*

*Vazirlar Mahkamasi qoshidagi*

*Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi*

*Global menejment yo'nalishi tabalasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida innovatsion faoliyatga ta'sir etuvchi omillar tizimli ravishda tahlil qilingan. Innovatsion faoliyatning jamiyat iqtisodiy taraqqiyotidagi o'rni ochib berilgan hamda ushbu faoliyatga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ichki va tashqi omillar o'rganilgan. Xususan, boshqaruvi tizimi, moliyaviy resurslar, kadrlar salohiyati kabi ichki omillar kabilar bilan birga, davlat siyosati, texnologik rivojlanish, investitsion muhit kabi qator muhim tashqi omillar ta'siri tahlil etilgan. Shuningdek, O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarida innovatsion faoliyatning hozirgi holati va uni rivojlantirish bo'yicha takliflar keltirilgan. Maqola yakunida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** innovatsion faoliyat, aksiyadorlik jamiyati, ichki omillar, tashqi omillar, texnologik yangilik, boshqaruvi.

**Abstract:** This article systematically analyzes the factors influencing innovative activity in joint-stock companies. The role of innovative activity in the economic development of society is revealed and internal and external factors that have a positive and negative impact on this activity are studied. In particular, along with internal factors such as the management system, financial resources, human resources, the influence of a number of important external factors such as state policy, technological development, and the investment environment is analyzed. Also, the current state of innovative activity in joint-stock companies of Uzbekistan and proposals for its development are presented. At the end of the article, practical recommendations are developed to increase the effectiveness of innovative activity.



**Keywords:** innovative activity, joint-stock company, internal factors, external factors, technological innovation, management.

**Аннотация:** В данной статье системно анализируются факторы, влияющие на инновационную деятельность в акционерных обществах. Раскрывается роль инновационной деятельности в экономическом развитии общества и изучаются внутренние и внешние факторы, оказывающие положительное и отрицательное влияние на эту деятельность. В частности, наряду с внутренними факторами, такими как система управления, финансовые ресурсы, человеческие ресурсы, анализируется влияние ряда важных внешних факторов, таких как государственная политика, технологическое развитие, инвестиционная среда. Также представлены современное состояние инновационной деятельности в акционерных обществах Узбекистана и предложения по ее развитию. В конце статьи разработаны практические рекомендации по повышению эффективности инновационной деятельности.

**Ключевые слова:** инновационная деятельность, акционерное общество, внутренние факторы, внешние факторы, технологические инновации, управление.

### Kirish

Bugungi globallashuv sharoitida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va jahon bozoriga chiqishning muhim sharti bu – innovatsion faoliyatni samarali tashkil etishdir. Aksiyadorlik jamiyatlari esa ushbu jarayonda yetakchi subyektlardan biri hisoblanadi. Ular o‘z oldiga strategik maqsadlar qo‘yan, moliyaviy va tashkiliy imkoniyatlarga ega yirik xo‘jalik yurituvchi subyektlardir. Innovatsion faoliyat bu – yangi mahsulotlar yaratish, ilg‘or texnologiyalarni joriy qilish, boshqaruv uslublarini takomillashtirish orqali raqobatbardoshlikni ta’minlash jarayonidir. Ushbu faoliyatga ta’sir qiluvchi ichki va tashqi omillarni chuqur tahlil qilish orqali aksiyadorlik jamiyatlarining innovatsion salohiyatini oshirish mumkin.

### Asosiy qism



Aksiyadorlik jamiyatlari zamonaviy bozor iqtisodiyotining ajralmas bo‘g‘ini hisoblanadi. Ular ko‘p sonli investorlar tomonidan tashkil etilgan bo‘lib, aksiyalar orqali moliyaviy resurslarni jamlash va samarali taqsimlash imkonini beradi. Ushbu tuzilma yirik ishlab chiqarish, innovatsion faoliyat va xizmat ko‘rsatish sohalarida keng ko‘lamli loyihalarni amalga oshirish uchun qulay muhit yaratadi.

Aksiyadorlik jamiyatlari orqali:

- a) xususiy kapital jalb qilinadi,
- b) bozor iqtisodiyotiga moslashgan korporativ boshqaruva shakllanadi,
- c) moliyaviy shaffoflik va javobgarlik kuchayadi,
- d) yangi ish o‘rinlari yaratiladi,
- e) xalqaro investorlar uchun ishonchli hamkorlik muhiti vujudga keladi.

Shuningdek, ular ilm-fan va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etishda ham yetakchi subyekt sifatida faoliyat yuritadi. Shu sababli, aksiyadorlik jamiyatlarining iqtisodiyotdagi o‘rni nafaqat moliyaviy, balki ijtimoiy va innovatsion jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida innovatsion faoliyat korxonaning raqobatbardoshligini oshirish, bozor sharoitlariga moslashish va barqaror rivojlanishni ta’minlashda asosiy vosita hisoblanadi. Ushbu faoliyat yangi mahsulotlar yaratish, ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish hamda boshqaruva tizimlariga ilg‘or yondashuvlarni joriy etishni o‘z ichiga oladi.

Innovatsion faoliyat orqali jamiyatlar:

- a) ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi;
- b) yangi bozor segmentlarini egallaydi;
- c) intellektual mulk ob‘ektlarini yaratadi;
- d) raqobat ustunligiga ega bo‘ladi.

Bu jarayon doimiy yangilanish, tajriba almashinuvi va strategik yondashuvni talab qiladi. Aksiyadorlik jamiyatlari uchun innovatsion faoliyat — bu nafaqat texnik yoki texnologik o‘zgarish, balki korporativ rivojlanishning muhim strategik yo‘nalishidir. Innovatsion faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi aksiyadorlik



jamiyati ichida mavjud bo‘lgan bir qator omillarga bevosita bog‘liq. Ularning asosiyлari quyidagilardir:

**Korxona boshqaruv tizimi**-samarali boshqaruv tizimi innovatsion qarorlarning tez va aniq qabul qilinishini ta’minlaydi. Raqamlashtirilgan va moslashuvchan boshqaruv strukturalari korxonaning o‘zgaruvchan tashqi sharoitlarga tez moslashishiga xizmat qiladi. Shuningdek, rahbariyatning innovatsiyaga bo‘lgan ijobiy munosabati va strategik qarorlar bu jarayonda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. **Moliyaviy resurslar**-innovatsiyalarni moliyalashtirish manbalari — ichki daromadlar, investor mablag‘lari yoki davlat grantlari — yetarli bo‘lishi zarur. Moliyaviy barqarorlik innovatsion loyihalarning uzoq muddatli amalga oshirilishini ta’minlaydi. Mablag‘yetishmasligi esa innovatsion faoliyatni sustlashtiradi yoki to‘xtatadi. **Kadrlar salohiyati**-yuqori malakali va ijodiy fikrlovchi mutaxassislar innovatsion jarayonlarning asosi hisoblanadi. Zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega xodimlar, ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jamoalar jamiyatda innovatsion salohiyatni kuchaytiradi. Doimiy malaka oshirish va treninglar bu salohiyatni yanada oshirishga xizmat qiladi. **Korporativ madaniyat**-innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish, xodimlarni yangiliklar joriy etishga undovchi tizimlar va ochiq muloqot madaniyati innovatsion faoliyatni kuchaytiradi. G‘oyalarga nisbatan ochiqlik, xatoliklardan o‘rganish va jamoaviy fikrlash innovatsiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun shartlardandir.

Aksiyadorlik jamiyatlarining innovatsion faoliyatiga ta’sir qiluvchi tashqi omillar ular faoliyat yuritayotgan makroiqtisodiy, huquqiy va texnologik muhit bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu omillar quyidagicha izohlanadi:

**Davlat siyosati va qonunchilik**-davlat tomonidan ishlab chiqilgan innovatsion siyosat, soliq imtiyozlari, grantlar, subsidiyalar va qonunchilik bazasi aksiyadorlik jamiyatlarining innovatsiyaga qiziqishini oshiradi. Hukumat tomonidan yaratilgan qulay tartibga solish mexanizmlari innovatsion faoliyatni rag‘batlantiradi. Aksincha, byurokratik to‘sqliar va nomuvofiq qonunchilik innovatsiyalarni sekinlashtiradi.



**Bozor raqobati-raqobat** muhiti kuchli bo‘lgan bozorlarda kompaniyalar yangilik kiritishga va mahsulotlarini takomillashtirishga intiladilar. Bozor talabining o‘zgaruvchanligi va iste’molchilarning yuqori talabchanligi jamiyatlarni innovatsion izlanishlarga undaydi. Raqobat past bo‘lgan sharoitlarda esa innovatsiyalarni joriy etishga ehtiyoj kamayadi. **Texnologik rivojlanish**-global texnologik yutuqlar va ilm-fan rivojining tezligi aksiyadorlik jamiyatlarini yangi texnologiyalarni o‘zlashtirishga va raqamli transformatsiyaga yo‘naltiradi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sun’iy intellekt, avtomatlashtirish tizimlari innovatsion faoliyatning asosiy omillariga aylangan. **Investitsiya muhiti**-investitsion muhitning barqarorligi, xorijiy sarmoyadorlar uchun qulayliklar, kafolatlangan huquqiy asoslar innovatsiyalarni rivojlantirish uchun muhim tashqi omil hisoblanadi. Moliyaviy institatlarning faol ishtiroki va innovatsion loyihalarga yo‘naltirilgan investitsiyalar ko‘laming kengayishi aksiyadorlik jamiyatlarining texnologik salohiyatini oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik yillardan boshlab innovatsion rivojlanish yo‘lida muhim islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Mamlakatda faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlari ham bu jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. Jumladan, 2019-yilda Innovatsion rivojlanish vazirligining tashkil etilishi, “Innovatsion rivojlanish strategiyasi”ning qabul qilinishi bu yo‘nalishda institutison bazaning shakllanishiga zamin yaratdi. Bugungi kunda aksiyadorlik jamiyatlarining innovatsion faoliyati quyidagi yo‘nalishlarda rivojlanmoqda:

- a) ishlab chiqarish texnologiyalarini modernizatsiya qilish;
- b) raqamli texnologiyalarni joriy etish;
- c) eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish;
- d) ilmiy-tadqiqot institatlari bilan hamkorlik qilish.

Misol tariqasida, “UzAuto Motors” AJ, “Uzbektelecom” AJ, “O‘zdonmahsulot” AJ kabi yirik korxonalar tomonidan innovatsion loyihalar ishlab chiqilib, joriy etilmoqda. Biroq hali-hanuz korxonalarda:

- a) ilm-fan bilan integratsiyaning sustligi,
- b) kadrlar salohiyatining yetarli emasligi,



c) moliyaviy resurslarning cheklanganligi kabi muammolar saqlanib qolmoqda.

Shu sababli, aksiyadorlik jamiyatlarining innovatsion salohiyatini oshirish uchun davlat, xususiy sektor va ilmiy soha o'rtaida kuchli hamkorlik tizimini yo'lg'a qo'yish muhim ahamiyatga ega.

### Xulosa

Aksiyadorlik jamiyatlarining innovatsion faoliyati zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotda hal qiluvchi o'rin egallaydi. Ular nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish, balki raqobatbardoshlikni ta'minlash, texnologik yangilanishni jadallashtirish hamda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, innovatsion faoliyatga ta'sir qiluvchi omillar ichki va tashqi guruhlarga bo'linadi. Ichki omillar – korxona boshqaruv tizimi, moliyaviy resurslar, kadrlar salohiyati va korporativ madaniyat bilan bog'liq bo'lsa, tashqi omillar – davlat siyosati, bozor raqobati, texnologik rivojlanish va investitsiya muhiti bilan chambarchas aloqador. O'zbekiston misolida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, aksiyadorlik jamiyatlarida innovatsion faoliyatga e'tibor tobora ortib bormoqda. Shu bilan birga, mavjud muammolar – moliyaviy cheklar, innovatsion infratuzilmaning yetarli emasligi, ilmiy-tadqiqot ishlari bilan integratsiyaning sustligi – innovatsion rivojlanish sur'atlarini cheklab kelmoqda. Shunday ekan, aksiyadorlik jamiyatlarining innovatsion faoliyatini rag'batlantirish uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlov mexanizmlarini kuchaytirish, xususiy sektorni jalb qilish, malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va xalqaro tajribani amaliyotga tatbiq etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. (2016). *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti.
2. Abduraxmanov Q.X., Ibragimov A.X. (2021). *Innovatsion iqtisodiyot asoslari*. Toshkent: "Iqtisodiyot" nashriyoti.
3. O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatları va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni. (O'RQ-370-sun, 2014-yil 6-may).



4. Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy ma’lumotlari. ([www.stat.uz](http://www.stat.uz))
5. Schumpeter, J.A. (1934). *The Theory of Economic Development*. Harvard University Press.
6. OECD (2020). *Innovation and Business Performance in Emerging Markets*. Paris: OECD Publishing.
7. Porter, M. (1990). *The Competitive Advantage of Nations*. New York: Free Press.
8. Islamova D.I. (2022). “Aksiyadorlik jamiyatlarining innovatsion salohiyatini oshirish yo‘llari”. *Iqtisodiyot va innovatsiyalar* jurnali, №2, 45–50-betlar.
9. Uzbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi rasmiy sayti – [www.mininnovation.uz](http://www.mininnovation.uz)
10. Deloitte (2021). *Innovation in Corporate Governance: Trends and Best Practices*. Deloitte Insights.